


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



AMALIY XORIJIY TIL (FRANSUZ TILI)

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000	-Gumanitar soha
	200000	-Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta'lim sohasi:	600000	-Xizmatlar sohasi
	120000	-Gumanitar fanlar
	230000	-Iqtisod
	210000	-Sotsiologiya va psixologiya
	220000	-Jurnalistika va axborot
	610000	-Xizmatlar ko'rsatish sohasi
Mutaxassislik:	5A120101	- Adabiyotshunoslik (sharq tillari);
	5A120102	- Lingvistika (sharq tillari);
	5A120103	- Mutoz filologiya (sharq tillari);
	5A120201	- Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (sharq tillari);
	5A120202	- Sinxron tarjima (sharq tillari);
	5A120302	- Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turlari bo'yicha);
	5A120304	- Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari (Markaziy Osiyo amlakatlari bo'yicha);
	5A120502	- Sharq falsafasi va madaniyati;
	5A120701	- Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik;
	5A121102	- Xalqaro munosabatlar va jahon siyosati;
	5A121401	- Etnografiya, etnologiya va antropologiya;
	5A231001	- Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha);
	5A231102	- Tashqi iqtisodiy faoliyat (tashqi savdo faoliyati)
	5A610301	- Turizm (faoliyat yo'nalishlar bo'yicha)

Toshkent - 2020

Fan/modul kodi 5AXT114		O'quv yili 2020-2021	Semestr 1,2	ECTS - Kreditlar 2/2	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 2	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Amaliy xorijiy til		60	60	120
2.	I. Fanning mazmuni Ushbu fan doirasida magistratura bosqichi talabalarining amaliy xorijiy til bo'yicha og'zaki va yozma nutqlarini yanada rivojlantirish, ulardan kelgusi ilmiy va kasbiy faoliyatlarida samarali foydalanishlarini ta'minlash nazarda tutiladi. "Amaliy xorijiy til" fani magistratura bosqichi o'quv rejasining "Umummetodologik fanlar" blokiga kiritilgan bo'lib, birinchi kurslarda o'qitilishi maqsadga muvofiq. Fanning vazifasi - o'rganilayotgan amaliy xorijiy til bo'yicha amaliy kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, shuningdek magistrantlarning o'rganayotgan amaliy chet tillardan birida ravon va aniq so'zlashishlariga va hozirgi paytda dunyoda sodir bo'layotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy voqelikka o'z munosabatlarini bildirishlarini hamda mustaqil fikrlash, izlanish, bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi: – magistrantlarga o'rganilayotgan amaliy chet tilidan ona tiliga yozma va og'zaki tarjima masalalari, leksik, grammatik va stilistik sathlaridagi o'xshash va tafovutli jihatlari, o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar berish; – magistrantlarning matnni leksik, semantik va stilistik tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish; – ma'lumotni turli kontekstlarda tahlil qilish orqali uning ma'nosini qayta ifoda etish usullarini o'rgatish; – magistrantlarni turli vaziyatlarda o'rganilayotgan amaliy xorijiy tilda ravon muloqat qilishga o'rgatishdan iborat. Fan bo'yicha magistrantlarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. II. Asosiy amaliy qism (amaliy mashg'ulotlari) Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Magistratura mutaxassisliklari bitiruvchilari o'quv kursi nihoyasida				

o'rgangan xorijiy til bo'yicha (CEFR) V2 darajani egallashlari ko'zda tutiladi. Ushbu darajaga erishish uchun quyidagi kompetensiyalar integrallashgan holda o'qitiladi:

Tinglab tushunish kompetensiyasi:

- O'rganilayotgan amaliy xorijiy tilning rivoji va til doirasidagi asosiy ekstralingvistik shakllanishning faktorlari hamda tarixiy manbalari, uning dialektik xilma-xilligini tushunish;
- o'rganilayotgan amaliy xorijiy tilidagi e'lon va xabarlarni tushuna olish;
- ma'ruza nutq, bayonot, ilmiy va ixtisoslik taqdimotlar, so'rov va fikrlarning mohiyatini tushuna olish;
- mavzu yaxshi tanish bo'lganda va axborot yo'nalishi o'rniga mos markerlar ko'rsatilayotgan holatda davomli ma'ruza yoki dalillarning murakkab tizimini kuzata olish;
- radio, internet va televidenie dasturlari, intervyularning aksariyat qismini tushuna olish.

O'qish kompetensiyasi:

- o'z mutaxassislik sohalariga oid yoki oid bo'lmagan keng ko'lamli birmuncha uzun va murakkab matnlarning uslubiy jihatlari, ochiq oydin yoki birmuncha yashirin bayon etilgan fikrlarni tushuna olishi;
- kichik detallarning ham muhim jihatlari, qarashlar, ochiq oydin yoki birmuncha yashirin bayon etilgan fikrlarni aniqlay olishi;
- o'z mutaxassislik sohalariga oid veb sayt yoki jurnallardan tegishli tafsilotlarni o'qib tushuna olishi;

Yozish kompetensiyasi:

- stilistik xususiyatlar, me'yoriy grammatika asoslarini bilishi;
- maxsus nomalar, biznes xatlar, elektron xatlar yoza olishi;
- o'rganilayotgan tilda yaxshi tuzilgan insho va ma'ruzalar yoza olishi;
- takliflar, xulosalar va tezislar yoza olishi;

Gapirish kompetensiyasi:

- o'rganilayotgan tilda so'zlashuvchilar bilan muloqotga kirisha olishi (zarur bo'lganda boshqara olish);
- o'z sohalariga oid intervyuda qatnasha olish;
- rasmiy doiralarda (masalan seminar va h.k.lar) xos ravishda savol-javobda ishtirok eta olishi;
- ma'lum mavzu bo'yicha taqdimot qila olish kabi bilim, ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlari talab etiladi.

Kommunikativ kompetensiya:

- yuzaga kelgan muammoning mohiyatini tushuntira olish va mijozga zaruriyat tug'ilganda rozilik borasidagi xizmatni taqdim qiluvchi shaxsga tushuntira bilish;
- til shakllarini tanlay bilish va ularni nutq mazmuni bo'yicha kommunikativ vaziyatlar doirasida kasbiy matnga muvofiq tarzda qo'llash va o'zgartira olish;
- til egalarida hayratlanish yoki achchiqlanishni uyg'otmaydigan, ular uchun tabiiy, odatiy sanalgan muomalada muloqot qila olishni bilishlari lozim.

Lingvomamlakatshunoslik kompetensiyasi:

- nutq mazmuni bo'yicha kasbiy kommunikativ vaziyatlar doirasida ekvivalentsiz kasbiy so'zlarni bilish va ularni matnlarda (jumladan, ma'lumotnomalardan foydalangan holda) tushunish;
- tili o'rganilayotgan mamlakatdagi kasbiy faoliyatning ob'ektini anglatuvchi so'zlarni bilish;
- tili o'rganilayotgan mamlakatda qabul qilingan kasbiy muloqot me'yorlariga muvofiq tarzda nutqiy muomalani va odob (etiket) qoliqlarini qo'llay bilish.
- insonlarga nisbatan hurmat, boshqa madaniyatga tolerantlikni saqlagan holda jamiyatda qabul qilingan odob-ahloq va huquqiy me'yorlar asosida ijtimoiy hamkorlikni, sherikchilik, ishonchli munosabatlarni qo'llab-quvvatlashda javobgarlikka tayyor ekanligini namoyon eta olishlari zarur.

**Amaliy xorijiy tilning fonetika va grammatika
qismlari bo'yicha umumiy ma'lumot**

O'rganilayotgan tilning tovush tizimi urg'u, intonatsiya, ritmik guruh, so'zlarning bog'lanishi va morfologik tuzilishi, so'z turkumlari: ot, sifat, son, fe'l, ravish, yordamchi so'zlar, artikllar, predloglar, ravishdosh, sifatdosh fe'llarning aktiv va passiv formolari, modal fe'llar, kon'yuktiv 1, kon'yuktiv 2, infinitiv va infinitivli konstruksiyalar modal so'zlar, modal yuklamalar, fe'l zamonlari, murakkab to'ldiruvchi, otlarning ko'plik formasi, sifatlarda rodning ifodalanishi, gap bo'laklari va ularning umumiy tasnifi, zamonlarning moslashuvi ko'chirma va o'zlashtirma gap.

Amaliy xorijiy tilning sintaksis qismi bo'yicha umumiy ma'lumot
Gap, sodda gap, bir bo'lakli gaplar, ikki bo'lakli gaplar. Qo'shma gaplar. Aniqllovchi ergashgan, ega ergashgan, maqsad ergashgan, to'ldiruvchi ergashgan, hol ergashgan, ravish ergashgan, natija ergashgan, sabab ergashgan, shart ergashgan, to'siqsiz ergash gaplar, aktiv va passiv forma,

Axborot manbalari

1. www.bnf.fr - французская национальная библиотека
2. www.europeana.eu
3. www.bibliovirtuelle.ca
4. www.bibliothequevirtuelle.be
5. www.problemistics.org
6. www.eifl.net
7. www.ina.fr

7. Fan dasturi Oliy va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning 202 0 yil "23" 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 202 0 yil "23" 08 dagi 452 sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

8. Fan /modul uchun mas'ul:
N.K Ochilova - TDSHU, "G'arbiy Yevropa tillari" kafedrasida o'qituvchisi

9. Taqrizchilar :
K.S.Raxmonberdiyeva – TDSHU, "G'arbiy Yevropa tillari" kafedrasida katta o'qituvchisi;
Z.T.Norbekova- TDIU, "Xorijiy tillar" kafedrasida katta o'qituvchisi

	mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. Shirinova K.X. «Француз тили.» Дарслик. Т-Сано стандарт. 2015 (иккинчи нашр, 2017). 2. А.И.Иванченко. Parlons français. Издательство. КАРО. Санкт-Петербург 2007. 3. Grammaire progressive du français avec 600 exercices. CLE international. 2014. 4. A. Baptiste, R. Marty: CIEP: DELF B2, Paris 2010 5. C. Martins, J.J. Mabilat : Conversations pratiques de l'Oral, Alliance Française, pdf 6. Grammaire Progressive du Français , CLE Internationale Qo'shimcha adabiyotlar 7. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2016. - 56 b. 8. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston", 2017. 9. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: "O'zbekiston", 2017. - 48 b. 10. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. - 488 b. 5. Ibragimova R.S. Fransuz tili O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2010. Audio video materiallar 1. Аудио курс для начинающих. Alter Ego. 2. Film 2000 «Paris, Louvre, Versailles» 3. Film 2002 «Une journée de français » etc.

	passiv formaning alternativarlari. Amaliy xorijiy tilning leksika qismi bo'yicha umumiy ma'lumot Mutaxassislikka oid termin va tushunchalar. Abbreviatura, akronim va toponimlar. Idiomalar, frazeologik birliklar. Ko'p ma'noli so'zlar, so'z birikmalari, erkin birikmalar, fe'lli turg'un birikmalar. O'zlashgan so'zlar. Klishelar. Lug'atlar va ularning tarkibi. Tillardagi realiyalar, muqobilsiz leksikalar. II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: Amaliy mashg'ulotlarda magistrantlar o'rgangan amaliy xorijiy tillarida jonli muloqot qilishni va kasbiga oid mavzularni chet tilidan ona tiliga, ona tilidan chet tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilishni o'rganadi. "Amaliy xorijiy til" fani o'z xususiyatiga ko'ra ijtimoiy hayot bilan bevosita va bilvosita bog'liq holda jamiyatning turli sohalarida uchraydigan voqealarga oid mavzularni qamrab oladi. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi: 1. Kelajakdagi mutaxassis kasbiy faoliyati. 2. O'zi egallayotgan soha bo'yicha respublikamizda erishilgan yutuqlar, soha taraqqiyoti bo'yicha istiqbol rejalar. 3. O'zi egallayotgan soha bo'yicha xorijiy mamlakatlarda erishilgan yutuqlar, soha taraqqiyoti bo'yicha istiqbol rejalar. 4. Davrning eng dolzarb muammolari va ularning echimi. 5. Globallashuv va integratsiya (turli mamlakatlar iqtisodiy hayotining yagona iqtisodiy siyosat asosida o'zaro bog'langan holda rivojlanish shakli). 6. Terrorizm, odam savdosi, giyohvandlik, ishsizlik kabi illatlarga qarshi kurash. 7. Xalqaro iqtisodiy inqiroz. 8. Ekologiya va salomatlik. 9. Xalqaro hamkorlik. 10. Kasbiy faoliyat 11. Davlatlararo ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy munosabatlar. 12. Xalqaro turizm va uni rivojlantirish konsepsiyasi. Amaliy mashg'ulotlarda magistratura talabasi egallayotgan mutaxassisligi bo'yicha o'z davlati va tili o'rganilayotgan mamlakat ta'lim tizimi, uning yutuq va kamchiliklarini o'rganishi, tahlil qilishi, mutaxassislikka oid lingvistik atamalar bilan ishlashi, egallayotgan sohasi bo'yicha xorijiy tillardagi internet resurslaridan samarali foydalanishi
--	--

	nazarda tutiladi. Magistrantlar o'rganilayotgan chet tili bo'yicha bilim va ko'nikmalarini jonli muloqot, mashqlar bajarish, insho va bayonlar yozish, mashqlarni tarjima qilish orqali yanada boyitadilar. SHuningdek darslik va o'quv qo'llanmalar, audio va video materiallar asosida bilimlarini mustahkamlash, tarjima materiallaridan foydalanish, o'tilgan mavzular yuzasidan dialog qilish va shu kabilar orqali magistrantlar bilimini oshirish tavsiya etiladi. IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar Mustaqil ta'lim mavzulari sohalar xususiyatini inobatga olgan holda kafedra mutaxassislari tomonidan belgilanadi. Mavzular talabani mustaqil bilim olishga ongli ravishda yo'naltirishi lozim. Vazifalar ustida ishlash jarayonida: ✓ vazifalarni aniqlash va personalizatsiya qilish; ✓ kutubxonalardan unumli foydalanish; ✓ internetdan maqsadli va samarali foydalanish; ✓ plagiat (ko'chirmakashlik) ga yo'l qo'ymaslik; ✓ xotirani yaxshilash; ✓ imtihon va testga tayyorgarlik ko'rish; ✓ ta'lim ko'nikmalarini bosqichma-bosqich egallab borish; ✓ amaliy vazifalarni bajarish; ✓ mustaqil o'qish; ✓ dolzarb mavzular muhokamasi; ✓ matnlar /maqolalar/video materiallarni tanqidiy muhokama qilish; ✓ talaba portfoliosiga alohida ahamiyat beriladi.
3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: Fransuz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar madaniyati va tarixiy obidalari, tarixiy rivojlanishining asosiy qonuniyatlari va bosqichlari, mintaqa tarixiy geografiyasi haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo'lishi</i>; Fransuz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar jahonda tutgan o'rni, qadimdan hozirgacha davlatchilik jarayonlari tarixi haqida <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; Fransuz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar xalqlari madaniyati bo'yicha ma'lumotlarni boshqa mintaqalarning ilg'or madaniyatlari bilan solishtirish va bu madaniy, ulardan foydalanish malakalariga <i>ega bo'lishi kerak</i>. -tovush tizimi va me'yoriy grammatika asoslarini bilish; - ma'ruza nutq, bayonot, so'rov va fikrlarning mohiyatini tushuna olish; -qisqa e'lon va xabarlarini tushuna olish;

	-mavzu doirasida nemis tilida fikr ifodalay olishni bilish; -“Fransuz tili” bo'yicha olgan bilimlari va hosil qilgan ko'nikmalari asosida bog'lanishli matn tuzish; -mavzuga doir savol-javoblarda ishtirok eta olish; -ma'lum mavzu bo'yicha taqdimot qila olish; -o'rganilayotgan tilda so'zlashuvchilar bilan muloqotga kirishishga ega bo'ladi. Masalan: Kundalik hayotga oid mavzular (shaxsiy ma'lumot, oila haqida ma'lumot, bo'sh vaqtni o'tkazish va hokazo). Ijtimoiy mavzular (atrof-muhit bilan kundalik turmush va kasbga oid qiziqishlar bo'yicha ijtimoiy aloqalar). Ta'limga oid mavzular (ta'lim muassasalari, turli davlatlar ta'lim tizimini qiyoslash). Ijtimoiy-madaniy mavzular (O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatlar, masalan Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSh, Germaniya va Avstriya madaniyatlarining asosiy o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash). Kasbga oid mavzular: iqtisodiyot, biznes, turizm va ta'lim olish maqsadlari uchun maxsus chet tili (mavzuga oid til ko'nikmalarini shakllantirish, taqdimot qila olish va hokazo).
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • Grammatik-tarjima metodi; • Audio-lingval metod; • Audiovizual metod; • Namoyish qilish (demonstratsiya) metodi; • guruhlarda ishlash. • Aqliy xujum; • Klaster; • Baliq skeleti texnikasi; • Ajurli arra" texnologiyasi; • FSMU texnologiyasi; • Bumerangtexnologiyasi; • Insert jadvali; • BBXB (bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim) texnikasi; Tayanch iboralar ishtirokida gap tuzish uslubi.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida